



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2026 YIL — MAHALLANI RIJOVLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 20-yanvar, № 12 (9183)

SESHANBA

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI ITALIYA BOSH VAZIRI BILAN UCHRASHUV O'TKAZDI

19-yanvar kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizda to'xtagan Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni bilan uchrashuv o'tkazdi.



O'zbekiston – Italiya strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlarini ko'rib chiqildi.

2025-yilning may oyida Samarqandda oliy darajada erishilgan kelishuvlarning izchil amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Turli darajalarda faol muloqotlar davom etmoqda. Tovar ayirboshlash hajmi va qo'shma korxonalarining soni barqaror o'sib bormoqda. Hududlararo, shu jumladan, Lombardiya bilan almashinuvlar rivojlanmoqda. O'zbekiston fuqarolarining tartibli mehnat migratsiyasi uchun kvotalar ajratildi.

"Finopera", "ANCI", "Pietro Fiorentini", "Danieli" va boshqa kompaniyalar bilan hamkorlikda yirik sanoat kooperatsiyasi loyihalari amalga oshirilmoqda. O'tgan yil oxirida Samarqandda Tushia universitetining filiali ochildi.

Joriy yilda tashqi siyosat idoralari strategik muloqoti va hukumatlararo komissiyaning yig'ilishlari, shuningdek, ikkinchi Rektorlar forumini o'tkazish rejalashtirilgan.

To'qimachilik sanoati, geologiya, energetika, kimyo, qurilish materiallari, moliya bozori va boshqa ustuvor sohalardagi qo'shma loyihalarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Italiyada O'zbekiston, O'zbekistonda esa Italiya kinosi kunlarini o'tkazish to'g'risida kelishuvga erishildi. O'zbekistonning navbatdagi Venetsiya biennalesida ishtirok etishi hamda bu yil Milanda amaliy san'at va muzey ko'rgazmalarini o'tkazish rejalari qo'llab-quvvatlandi.

Xalqaro va mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Italiya Bosh vaziri Jorja Melonini O'zbekistonga alohida tashrif bilan kelishga taklif qildi.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Matbuot xizmati surati.

RO'YXATGA OLISH JARAYONLARI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA MALGA OSHIRILMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyevga aholini va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlarini tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborot berildi.

Ushbu tadbir mamlakatimizda demografik jarayonlar, mehnat resurslari, ijtimoiy infratuzilma va hududiy rivojlanishni ilmiy asosda rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ro'yxatga olish jarayonlari xalqaro standartlar asosida, zamonaviy raqamli yechimlardan foydalangan holda amalga oshirilmoqda.

Ro'yxatga olish joriy yilning 15-yanvaridan 28-fevraligacha ikki bosqichda o'tkazilmoqda. 15 – 31-yanvar kunlari davom etadigan birinchi bosqichda fuqarolar maxsus

axborot tizimi orqali onlayn ro'yxatdan o'tishlari mumkin. Ikkinchi bosqichda esa 4 – 28-fevral kunlari "mahalla yettilligi" xodimlari tomonidan umyay yurib, savolnomalar planshet qurilmalari orqali to'ldiriladi.

Aholini ro'yxatga olish jarayonlari "census.stat.uz" portalida amalga oshirilib, "OneID" tizimi orqali identifikatsiya qilinishi belgilangan. Barcha ma'lumotlar geoaxborot tizimi asosida monitoring qilinmoqda. Shu maqsadda respublika bo'yicha 7,6 milliondan ortiq xonadon va turarjoylarning geomanzillari

shakllantirildi, jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatib borish imkonini beruvchi maxsus monitoring dashbordlari ishlab chiqildi.

Fuqarolar tomonidan taqdim etiladigan barcha ma'lumotlar qonunchilik talablariga muvofiq himoya qilinadi, shaxsiy ma'lumotlar maxfiy saqlanadi va faqat statistik maqsadlarda qo'llaniladi.

Ro'yxatga olish tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazish uchun 14 ta hududiy, 208 ta tuman va shahar shtablari tashkil etildi. 60 ming nafarga yaqin ro'yxatga oluvchi xodimlar

tayyorlandi. Jumladan, 54 ming nafar "mahalla yettilligi" vakili, 2,6 ming xazira xodimi hamda 4 ming nafar hududiy shtab a'zosi jarayonga jalb etildi. Shuningdek, vazirlik va idoralardan 480 nafar trener, oliy ta'lim muassasalaridan 3200 nafar volontyor o'quvdan o'tkazildi.

Aholini xabardor qilish va targ'ibot ishlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 110 ta targ'ibot videoroligi, 600 ta televizion lavha tayyorlandi, ijtimoiy tarmoqda 6,3 mingga, aholi gavjum joylar va jamoat transportlarida 23

mingdan ziyod axborot materiallari joylashtirildi.

Qayd etilganidek, bugungi kunga qadar maxsus portal orqali 2,48 million xonadon hamda 31 mingga fermer xo'jaligi va qishloq xo'jaligi korxonasi ro'yxatga olindi.

Davlatimiz rahbari aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlarini sifatli o'tkazish, ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash va ulardan qaror qabul qilish jarayonlarida keng foydalanish muhimligini ta'kidladi.

O'ZA.

Tanzila NORBOYEVA,
Oliy Majlis Senati Raisi

ULUG'VOR MAQSADLAR SARI DADIL ODIMLAR

Bundan to'qqiz yil avval, davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi va tashabbusi tufayli taomilga kiritilgan Prezidentning xalqqa, uning vakillaridan tarkib topgan Oliy Majlisga Murojaatnomasi muhim dasturiy, siyosiy-huquqiy hujjat sifatida xalq bilan muloqot, davlatning xalq oldidagi hisobdorligi kabi demokratik tamoyillarning amaldagi eng yuksak namunasi sifatida jamiyat hayotidan chuqur joy oldi.

Munosabat

Shu kungacha ta'kidlangan Murojaatnomalarni yo'llangan bo'lsak, yildan-yilga mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida ulkan maqsadlar qo'yilib, misli ko'rilmas natijalarga erishilayotganiga, mustahkam ishonch bilan izchil barqaror rivojlanish sari dadil odimlar tashlanayotganiga guvoh bo'lamiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasi ham mamlakat hayotida muhim siyosiy voqea sifatida tarixga kirdi. Unda yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Ta'kidlanganidek, biz 2025-yilni dunyoda yaqin-yaqinlashgan hech kim tasavvur qila olmagan o'zgarishlar sodir bo'layotgan, davlatlar o'rtasida iqtisodiy qarama-qarshilik, xavfsizlikka tahdidlar ortib borayotgan tahlikali

bir vaziyatda yakunladik. Ana shu omillardan kelib chiqqan holda davlatimiz rahbari ichki va tashqi siyosatning eng muhim masalalari bo'yicha o'z qarashlarini nafaqat parlament a'zolari, balki butun O'zbekiston xalqi bilan bo'lishdi.

Prezidentimiz o'z Murojaatnomasida demokratik islohotlarni qat'iy davom ettirganimiz, xalqimizning qo'llab-quvvatlashi va yoshlarning g'ayrat-shijoati, hamjihatlik asosi bo'lgan mahallaning hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirganimiz, odamlarimizning ongi va dunyoqarashini o'zgartirib, el-yurtimizni yanada jipslashtirganimiz hisobiga o'tgan yilda barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishganimizni ta'kidladi.

Shubhasiz, 2025-yil Yangi O'zbekiston tarixida o'zining o'chmas izini qoldirdi.

Murojaatnomada qat'iy ishonch bilan aytilgan quyidagi dalilga e'tiboringizni qaratmoqchiman:

"Bundan ikki yil oldin "O'zbekiston – 2030" strategiyasini qabul qilganimizda yalpi ichki mahsulot hajmini 2030-yilgacha 160 milliard dollarga yetkazishni belgilab olgan edik. Ko'rib turibsizlar, mavjud salohiyatimiz, bugungi islohotlarimiz, tadbirkorlarimizning faolligi, xorijiy sheriklarimiz bilan hamkorligimiz o'sib borayotgani hisobiga bu marraga 2026-yilning o'zida bemaolol erisha olamiz". Bu yurtimizda Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan ortga qaytmas islohotlarning naqadar hayotiyligini, samaradorligini, qolaversa, millat yetakchisining "Xalqimiz ertaga emas, bugun yaxshi yashashi kerak" degan eng oliy maqsadi, orzusi amalda ro'yobga chiqayotganini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Shuningdek, Yangi O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi nufuzi har qachongidan-da yuqori pog'onaga ko'tarildi. Yurtimiz global masalalar muhokama qilinadigan xalqaro muloqot maydoniga aylanib bormoqda. Birgina 2025-yilning o'zida mamlakatimiz Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi, YUNESKO Bosh konferensiyasining sessiyasi, "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" sammiti va Iqlim forumi kabi nufuzli xalqaro anjumanlarga mezbonlik qildi.

Mintaqamiz davlat rahbarlarining Toshkentda bo'lib o'tgan Maslahat uchrashuvida integratsiya jarayonlarini yangi sifat bosqichiga ko'tarish borasida muhim tashabbuslar ilgari surildi. Ozarbayjonni Markaziy Osiyo hamjamiyati formatiga to'la huquqli a'zo sifatida qabul qilish to'g'risida tarixiy qaror imzolandi.

O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston yetakchilarining mart oyida Xojandda bo'lib o'tgan uchrashuvida birinchi marta uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi tarixiy shartnoma hamda "Abadiy do'stlik to'g'risida"gi deklaratsiya qabul qilindi. Bunday ijobiy jarayonlarda mamlakatimiz yetakchisining hisssasi beqiyos ekanligi bugun hech kimga sir emas.

Qo'lga kiritilgan barcha muvaffaqiyatlar zaminida bir narsa –mamlakatimiz tashqi siyosatining ochiqligi, davlatimiz rahbarining kuchli siyosiy irodasi va xalqimizning birdamligi yotadi. Chunki birlik, hamjihatlik hukm surgan joyda, albatta, yutuqlar, muvaffaqiyatlarga erishish kafolatlanadi. Asrlar silsilasidan o'tib kelayotgan "Birlashgan – o'zar, birlashmagan – to'zar" degan falsafa bugun ham zahmatkash xalqimiz timsolida o'zini namoyon qilib turibdi.



Ochiq parlament

QO'LGA KIRITILGAN YUTUQLAR VA ISTIQBOLGA QARATILGAN REJALAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi tomonidan qo'mitaning 2025-yilgi faoliyati yakunlari hamda joriy yildagi rejalari yuzasidan OAV vakillari uchun ochiq muloqot o'tkazildi.

Unda davlatimiz rahbarining 2024-yil noyabr oyida Oliy Majlis palatalarida so'zlagan nutqi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida belgilangan vazifalar, shuningdek, parlament va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan kelib chiqib amalga oshiriladigan ishlar hamda qo'mita a'zolari tashabbusi bilan qabul qilingan xalqchil qonunlarning ahamiyati haqida axborot berildi. Ta'kidlanganidek, o'tgan davrda qo'mita "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunda belgilangan vazifalar doirasida ish olib bordi. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va 2025-yilgi davlat dasturi ijrosini nazorat qilish hamda ular doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratdi.

Hisobot davrida qo'mita 14 ta qonun loyihasi va ma'muriy-hududiy tuzilish masalasi bilan bog'liq 3 ta qaror loyihasiga mas'ul bo'ldi. Ulardan 11 tasi qabul qilinib, Senatga yuborilgan bo'lsa, 2 tasi ikkinchi o'qish muhokamasiga tayyorlanmoqda.

2025-yilda qo'mita tomonidan "O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi, "Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va kuzatish to'g'risida"gi, "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida"gi uchta yaxlit (yangi) qonun loyihasi ustida ish olib borildi hamda ular Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi.

Shuningdek, qo'mita mas'ul bo'lgan qonun loyihalari muhokamasi bo'yicha jami 63 ta ishchi guruh yig'ilishi o'tkazilib, ularda qonun loyihalari konseptual jihatdan takomillashtirildi. Qolaversa, qo'mita huzuridagi Jamoatchilik kengashining qonun loyihalari muhokamasi yuzasidan yig'ilishlari ham tashkil etildi.

Ko'rib chiqilgan davrda qo'mita tomonidan 16 ta nazorat-tahlil tadbiri o'tkazildi. Ularning 8 tasi davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitishga, 8 tasi esa qonun va qonunosti hujjatlarining ijrosi holatini o'rganishga taalluqli.

Jumladan, "Fermar xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning ijro holati Farg'ona viloyati, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning ijrosi Xorazm viloyati, "O'simliklarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning ijrosi esa Toshkent viloyati misolida nazorat-tahlil tartibida o'rganildi.

Shu bilan birga, suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va kanallarni betonlashtirish borasida olib borilayotgan ishlar holati Jizzax viloyati, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida aholiga qishloq xo'jaligi yerlarini ajratish va ulardan samarali foydalanish holati Andijon viloyati, dala chetlari, kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlarining atroflaridagi yer maydonlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosi Buxoro viloyati misolida tahlil qilindi.



(Davomi 2-betda).



INSON SALOHİYATI VA SALOMATLIGIGA DOIR USTUVOR VAZIFALAR MUHOKAMASI

Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi yigʻilishida “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida ijtimoiy sohalar boʻyicha belgilangan vazifalar muhokama qilindi. Unda senatorlar, ekspertlar, mahalliy Kengashlar deputatlari, vazirlik va idoralar hamda ommaviy axborot vositalarining xodimlari ishtirok etdi.

Majlisda Strategiyaning “Har bir insonga oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” yoʻnalishida belgilangan vazifalar, jumladan, maktabgacha taʼlim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, oʻrta umumtaʼlim maktablari taʼlim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish, professional taʼlimni rivojlantirish va oliy oʻquv yurti qamrovi hamda pedagog kadrlar maqomini oshirish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish va “korxona – oliy taʼlim muassasasi – ilmiy tashkilot” hamkorlik tizimi ravnaqining maqsadli koʻrsatkichlari koʻrib chiqildi. Majlis ishtirokchilari sogʻliqni saqlash sohasida aholining oʻrtacha umr koʻrish davomiyligini oshirish boʻyicha maqsadli koʻrsatkichlarga alohida eʼtibor qaratdi. Jumladan, 2030-yilga borib umr koʻrish davomiyligini 78 yoshga yetkazish, yurak-qon tomir kasalliklaridan erta

oʻlimni (30 – 69 yosh) 27 foizgacha, saraton kasalligidan esa 5,2 foizgacha kamaytirish maqsad qilinmoqda. Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish yoʻlida yurak-qon tomir, xavfli oʻsma, qandli diabet, sil kasalliklari tashxisi qoʻyilgan bemorlarning 50 foizini profilaktik koʻriklarda aniqlashga oʻtish, davolash muassasalariga poliklinika elektron yoʻllanmasi orqali borgan bemorlar ulushini 70 foizga yetkazish nazarda tutilmoqda. Strategiya ijrosini taʼminlashda deputatlar hamda jamoatchilik nazorati zarurligi qayd etildi. Amalga oshirilishi belgilangan ijtimoiy islohotlar aholiga sifati taʼlim va tibbiy xizmat koʻrsatishini taʼminlash, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishdan iborat. Senatorlar “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishga, taʼlim, ilm-fan va sogʻliqni saqlash sohasini rivojlantirishga xizmat qilishini taʼkidladi.

QOʻLGA KIRITILGAN YUTUQLAR VA ISTIQBOLGA QARATILGAN REJALAR

Joylarda oʻtkazilgan nazorat-tahlil tadbirlari davomida aniqlangan muammoli masalalar mutasaddi tashkilotlar vakillari ishtirokida hududning oʻzida muhokama etildi. Ochiq muloqotda qoʻmitaning kelgusidagi rejalariga haqida ham axborot berildi. Shuningdek, jurnalistlarni qiziqtirgan barcha savollarga batafsil javob qaytarildi. Ravshan MAMUTOV, Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasi raisi: – Prezidentimizning Oliy Majlis palatalaridagi nutqida belgilab berilgan dolzarb vazifalardan kelib chiqib, oʻtgan davrda qoʻmitamiz tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi. Avvalo, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini oʻz vaqtida oʻrganish, ularni ijobiy hal etishga alohida eʼtibor qaratdik. Qoʻmitamiz nomiga kelib tushgan 336 ta murojaatni belgilangan tartibda koʻrib chiqib, salmoqli qismini bartaraf qilishga erishdik. Hisobot yilida murojaatlarni koʻrib chiqishda fuqarolarning amaldagi qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritishga doir takliflarini oʻrganishga ham ustuvor ahamiyat berildi. Xususan, qoʻmitamizda uchrashuvlar oʻtkazilib, bildirilgan fikrlar atroflicha muhokama qilib berildi. Oʻtgan davrda qoʻmitamiz aʼzolari tomonidan 37 nafar jismoniy va yuridik shaxs vakillarining qabuli ham tashkil etildi. Ularda 48 ta masala koʻtarilgan boʻlib, deputatlar saʼy-harakati bilan ularning aksariyati hal qilindi. Joriy yilda ham davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilab berilgan 6 ta ustuvor vazifadan kelib chiqib, qonun ijodkorligi, nazorat tahlil faoliyati va saylovchilar bilan ishlash masalalariga jiddiy eʼtibor qaratamiz. Durbek AHMEDOV, Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasi raisi oʻrinbosari: – Hisobot yilida qoʻmitamiz aʼzolari tomonidan mansabdor shaxslarga saylovchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini taʼminlash bilan bogʻliq masalalar yuzasidan jami 17 ta deputat soʻrovi yuborildi. Ularda agrar sohadagi vazifalar ijrosi, dehqon va fermer xoʻjaliklarining huquqlarini himoya qilish, davlat dasturlarining bajarilishi, suv inshootlaridan foydalanish, aholi tomonlari suv bilan taʼminlash, mahsulot yetishtirishda eksport salohiyatini oshirish kabi masalalarga alohida eʼtibor qaratildi. Shuningdek, Qonunchilik palatasi majlisida qoʻmita hamda OʻzLiDeP fraksiyasi tashabbusi bilan Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi direktorining, Suv xoʻjaligi vazirining axborotlari eshitildi. Qolaversa, qoʻmitamiz taklifiga asosan Suv xoʻjaligi va Qishloq xoʻjaligi vazirlariga parlament soʻrovlari yuborildi.



“Xalq soʻzi”.

FUQAROLAR HUQUQ VA ERKINLIKLARINI YANADA ISHONCHLI HIMOYA QILISHNING MUSTAHKAM KAFOLATI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yigʻilishlari boʻlib oʻtdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator qonun loyihalari koʻrib chiqilib, tegishli taklif va tavsiyalar bildirildi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida oʻsimliklar karantini va himoyasi sohasidagi qonunchilikni Jahon savdo tashkilotining Sanitariya va fitosanitariya choralarini qoʻllash boʻyicha bitimiga muvofiqlashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama qilindi. Ushbu qonun loyihasiga koʻra, qator qonun hujjatlariga JSTning Sanitariya va fitosanitariya choralarini qoʻllash boʻyicha bitimida belgilangan qoida va normalarga muvofiqlashtirish bilan bogʻliq oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda. Fraksiya aʼzolari qonun loyihasi yuzasidan oʻz nuqtayi nazarini bildirib, oʻtgan davrda deputatlar tomonidan berilgan bir qator takliflar asosida qonun loyihasi yanada takomillashtirilgani, xususan, uning nomi amaliyotdan kelib chiqqan holda aniqlashtirilgani qayd etildi. Yigʻilishda “Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi atroflicha koʻrib chiqildi.

Qayd etilganidek, Oʻzbekistonda moliyaviy texnologiyalar sohasini rivojlantirish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni ulushini oshirish, shuningdek, sayyohlar oqimini koʻpaytirish va turistik xizmatlar koʻlamini kengaytirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Adhambek ISMOILOV, OʻzLiDeP fraksiyasi aʼzosi:

– Mazkur qonun loyihasida Oʻzbekiston hududida majburiy tarzda saqlanishi lozim boʻlgan shaxsga doir maʼlumotlar turlarini aniq belgilash, shuningdek, ayrim maʼlumotlarni chet elda qayta ishlash va saqlash uchun xavfsizlik, xalqaro standartlarga rioya etish va vakolatli organ talablarini bajarish kabi shartlarni joriy qilish taklif etilmoqda. Shubhasiz, ushbu oʻzgartirishlar xalqaro toʻlov tizimlarini mamlakatimizda qoʻllash, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, raqamli xizmatlar bozorini kengaytirish hamda fuqarolar va sayyohlar uchun zamonaviy toʻlov imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi.

Fraksiya yigʻilishida koʻrib chiqilgan qonun loyihalari atroflicha muhokama etilib, deputatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi qizgʻin muhokama

qilindi. Maʼmuriy sudlar soʻnggi yillarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari qonuniy manfaatlarining ishonchli sud himoyasini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda. Sudlar tomonidan aholi manfaatlariga zarar yetkazayotgan minglab gʻayriqonuniy hujjatlar bekor qilindi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklari tiklandi.

Keyingi yillarda maʼmuriy sudlar faoliyatini takomillashtirish boʻyicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, maʼmuriy sudlar sohasiga fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada ishonchli himoyalashga qaratilgan yangi institutlar kiritildi. Lekin shunga qaramay bugun maʼmuriy sudlar rolini yanada kuchaytirish zarurati vujudga kelmokda.

Shu maqsadda ishlab chiqilgan qonun loyihasi bilan maʼmuriy sudlar tomonidan maʼmuriy javobgarlikka tortish tartibi belgilanmoqda. Sud muhokamalarida maʼmuriy organ mansabdor shaxsi yoki uning vakili qatnashmagan va uning ishtiroki sud tomonidan uzri deb topilmagan taqdirda mansabdor shaxsga nisbatan sud jarimasini qoʻllash tartibi nazarda tutilmoqda. Shuningdek, dastlabki eshituv natijalariga koʻra, ariza koʻrmasdan qoldirilganda davlat bojini qaytarish tartibi belgilanyapti.

Qizgʻin muhokamadan soʻng qonun loyihasi qoʻllab-quvvatlandi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida dastlab Prezidentimiz raisligida Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyati yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida belgilab berilgan ustuvor vazifalar haqida soʻz yuritildi.

Qayd etilganidek, soʻnggi yillarda tashqi siyosatda salmoqli yutuqlarga erishildi. Oliy darajadagi tashriflar geografiyasining kengayishi, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarining yoʻlga qoʻyilishi, mamlakatimiz diplomatik vakolatxonalarining sonining sezilarli darajada oshgani davlatimizning xalqaro maydondagi nufuzi mustahkamlanib borayotganini koʻrsatadi.

Fraksiya aʼzolarining aytishicha, partiya saylovoldi dasturi va gʻoyaviy maqsadlaridan kelib chiqib, ilgari surilgan Tashqi siyosat faoliyati konsepsiyasini yangilash tashabbusini zamon talabi deb hisoblaydi. Bunda yangi konsepsiya milliy manfaatlar, iqtisodiy diplomatiya, xavfsizlik, inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillarini yaxlit holda mujassam etishi lozim.

Shundan soʻng deputatlar fuqarolar va tadbirkorlar uchun iqtisodiy hamda maʼmuriy sudlarga murojaat qilishda qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonun loyihasini koʻrib chiqdi.

U bilan Jinoyat va Iqtisodiy protsessual kodekslari, Maʼmuriy sud ishlarini yuritish toʻgʻrisidagi kodeks, shuningdek, “Sudlar toʻgʻrisida”gi va “Davlat boji toʻgʻrisida”gi

qonunlarga bir qator oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish nazarda tutilmoqda. Jumladan, maʼmuriy sud ishlarini yurituvda – huquqi buzilgan shaxslarning tanloviga koʻra, iqtisodiy sud ishlarini yurituvda esa taraflarning kelishuviga asosan ekstraterritorial sudlov mexanizmini joriy qilish taklif etilmoqda. Bunda ishni koʻrib chiqadigan sud avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali belgilanishi koʻzda tutilgan.

Gulnoraxon ABDUVOHIDOVA, “Adolat” SDP fraksiyasi aʼzosi:

– Fraksiyamiz yigʻilishida qonun loyihasini atroflicha muhokama etdik va uni yanada takomillashtirish boʻyicha oʻz takliflarimizni berdik. Aytish mumkinki, ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi sudga murojaat etishdagi ortiqcha ovoragarchiliklarni kamaytirish, korruptsiyaviy omillarni bartaraf qilish hamda sud qarorlarining sifati va samaradorligini oshirishga hissa qoʻshadi.

Yigʻilishda mazkur qonun loyihasi deputatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi Qonunga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi muhokamar markazida boʻldi.

Qonun loyihasida xalqaro kompaniyalar, xususan, xalqaro toʻlov tizimlarining mamlakatimizda faoliyat yuritishi uchun huquqiy shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish aks etmoqda. Taʼkidlanganidek, mazkur normalar xalqaro onlayn toʻlov kompaniyalarini Oʻzbekiston bozoriga qiziqtirish, raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda toʻlov xizmatlari bozori hajmini kengaytirishga xizmat qiladi.

Yigʻilishda, shuningdek, raqamli markirovkalan tizimi samaradorligini oshirish munosabati bilan Soliq kodeksiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritishga qaratilgan qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Qayd etilganidek, unda “masofaviy soliq tekshiruvi” tushunchasiga aniqlik kiritilib, mazkur tekshiruvni oʻtkazish tartibini soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlari oʻrtasida sogʻlom raqobat muhitini taʼminlash koʻzda tutilmoqda. Shuningdek, markirovkalan qoidalari buzish holatlari boʻyicha masofaviy soliq tekshiruvini soliq toʻlovchining huzuriga chiqmasdan, huquqbuzarlik yuzasidan ikki marta ogohlantirish berilganidan soʻng oʻtkazish hamda qaror qabul qilish jarayonlarini tezkor tashkil etishning qonuniy asoslari belgilanmoqda.

Yigʻilishda qonun loyihasi yuzasidan bir qator savollar koʻtarildi.

Shokirjon AHMEDOV, OʻZDXP fraksiyasi aʼzosi:

– Soliq nazorati va maʼmuriy javobgarlik masalalar yuzasidan Soliq kodeksining 2271-moddasiga kiritilayotgan oʻzgartirishlar qanday maqsadni koʻzda tutadi? Jarima miqdorlari va ularni qoʻllash tartibini qayta koʻrib

chiqish va bu orqali bir huquqbuzarlik uchun ikki marta maʼmuriy yoki moliyaviy javobgarlikka tortish holatlarining oldini olish muhim.

Qonun tashabbuskorlari ushbu masala masʼul qoʻmita tomonidan ham koʻtarilganini maʼlum qilib, loyihani ikkinchi oʻqishga tayyorlash jarayonida tegishli normalar qayta ishlanishini bildirdi.

Muhokama davomida qonun loyihalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan qator taklif va mulohazalar bildirilib, ular qoʻllab-quvvatlandi.

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, mazkur qonun loyihasi bilan maʼmuriy sud ishlarida ishonchning huquqiy himoyasi institutini joriy etish, ishlarni koʻrib chiqish samaradorligini oshirish maqsadida dastlabki eshituv institutini amaliyotga kiritish, shuningdek, maʼmuriy organ mansabdor shaxsi yoki uning vakilining sud majlislarida ishtirokini taʼminlashga doir normalar belgilanmoqda.

Yigʻilish davomida loyihada nazarda tutilayotgan yangi huquqiy institutlar va protsessual mexanizmlarning amaliy ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bildirildi. Qizgʻin muhokamadan soʻng qonun loyihasi qoʻllab-quvvatlandi.

Yigʻilishda “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkilotining Sanitariya va fitosanitariya choralarini qoʻllash boʻyicha bitimiga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Azizbek AKBAROV, Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi aʼzosi:

– Qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan atroflicha koʻrib chiqildi. Nazarda tutilayotgan normalar fitosanitariya sohasidagi qonun hujjatlarini bugungi kundagi barcha xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga, mamlakatimizda yetishtirilgan oʻsimlik va oʻsimlik mahsulotlarining xalqaro savdoda toʻsiqlarsiz harakatlanishiga, oʻsimliklar karantini sohasida huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

“Xalq soʻzi”.



KORRUPSIYA – JAMIYAT RAVNAQIGA JIDDIY TAHDID

Prezidentimizning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida korruptsiya mamlakat rivojiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi omillardan biri ekani alohida qayd etildi. Davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, u davlat taraqqiyotiga toʻsiq boʻladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdiddir.

Aks sado

2017-yilda Oʻzbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Qonuni qabul qilinishi bilan korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari yaratildi.

Oliy Majlisning har ikki palatasida masʼul qoʻmitalar tashkil etildi. Davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha milliy kengashi hamda agentlik faoliyat boshladi. Ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash, byurokratiyani bartaraf etish maqsadida raqamlashtirish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi. “Davlat xaridlari toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilinishi va ushbu tizimning raqamlashtirilishi natijasida 2024-yilda 14 trln. soʻm byudjet mablagʻlari tejab qilindi.

Shu bilan bir qatorda, komplayens-nazorat tuzilmalari tomonidan oʻtkazilgan 11 mingdan ortiq tekshiruvlar natijasida 793 mlrd. soʻm mablagʻ maqsadsiz sarflanishining oldi olingan, 2 trln. soʻmga yaqin moliyaviy xatolik va qoidabuzarliklar aniqlanib, 478 mlrd. soʻm zarar undirilgan. Samarali faoliyat koʻrsatkichlari (KPI) joriy etilishi esa 354 mlrd. soʻmlik qoidabuzarliklarni aniqlash,

550 mlrd. soʻm mablagʻ maqsadsiz sarflanishining oldini olish imkonini bergan. Shuningdek, 1400 ga yaqin manfaatlar toʻqnashuvi holatlari aniqlangan.

Biroq korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar darajasi hali ham yuqoriligiicha qolmoqda. Xususan, 2024-yil yakunlari boʻyicha korrupsiyaga qarshi kurashish milliy hisobotiga koʻra, korrupsiyaviy jinoyatlar soni 2023-yildagiga nisbatan 12,6 foiz oshgan. Ayniqsa, pora olish jinoyatlari 31,7 foiz, oʻzlashtirish yoki isrofgarchilikka yoʻl qoʻyish orqali talon-toroj qilish holatlari esa 16,8 foiz koʻpaygan. Korrupsiya natijasida yetkazilgan zarar ikki baravar oshib, 2,8 trln. soʻmni tashkil etgan. Zararni qoplash masalasi esa hamon muammo boʻlib qolmoqda. Xususan, Davlat xavfsizlik xizmati organlari tomonidan aniqlangan korrupsiya jinoyatlari bois yetkazilgan zararining 87 foizi, ichki ishlar organlari tomonidan aniqlangan holatlar boʻyicha esa atigi 30,4 foizi qoplangan.

Koʻrinib turibdiki, korrupsiya oqibatlarini bartaraf etishdan koʻra, uning oldini olish choralarini, yaʼni profilaktik mexanizmlar ustuvor ahamiyatga ega. Shuni inobatga olgan holda Prezidentimiz 2026-yilda bu illatga qarshi kurashish boʻyicha “favqulodda holat” eʼlon qilinishini

bildirdi va ushbu yoʻnalishda qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Korrupsiyaga qarshi kurash borasida amalga oshiriladigan ishlarining huquqiy mexanizmlari 2025-yil 30-dekabrda imzolangan “Oʻzbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi Prezident Farmonida oʻz ifodasini topgan.

Farmon bilan, birinchidan, barcha davlat organlari va tashkilotlarida komplayens xizmati faoliyat yuritadi. Ushbu jarayon ustidan nazorat Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Komplayens xizmatiga yuklatiladi. Shuningdek, komplayens xizmati faoliyatiga toʻsqinlik qilgan shaxslar qonunga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Komplayens tizimining yoʻlga qoʻyilishi qonun talabari toʻliq va qatʼiy bajarilishini taʼminlashga, shuningdek, korrupsiya xavflarini dastlabki bosqichda bartaraf etishga xizmat qiladi.

Komplayens xizmati faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, sunʼiy intellektdan foydalanishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Prezidentimiz farmoniga muvofiq, 2026-yil 1-iyuldan “Raqamli komplayens” axborot-dasturiy majmuasi sinov tarqasida joriy etiladi. Ushbu tizim doirasida maʼlumotlar tahlili asosida korrupsiya xavflarini aniqlash va baholashda sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalanish koʻzda tutilmoqda.

Ikkinchidan, rahbarlarning shaxsiy javobgarligi kuchaytiriladi. Barcha davlat idoralarda korrupsiyaga qarshi kurashish, komplayens va ichki nazorat uchun masʼul rahbar oʻrinbosari lavozimi joriy etiladi. Shuningdek, Hisob palatasi vakillarining faoliyati yoʻlga qoʻyiladi.

Ushbu rahbarlar tizimda halollikni taʼminlash, byudjet mablagʻlarining talon-toroj etilishi va xizmat vakolatlarini suiisteʼmol qilish holatlarining oldini olish uchun shaxsan javobgar boʻladi. Ular bevosita Prezidentga hisobdor, bu esa ularning maqomi va masʼuliyatini oshiradi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Komplayens xizmati har bir pora olish yoki xizmat vakolatini suiisteʼmol qilish holati haqida Prezidentga axborot taqdim etadi.

Davlat organlarining ichki antikorrupsiya nazorati boʻlinmalari faoliyati Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Uchinchidan, davlat va jamoatchilik oʻrtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi. Prezidentimiz farmoniga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashishning yagona tizimi –

2026-yilda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar toʻqnashuvi xavflarini minimallashtirishga alohida eʼtibor qaratiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining muvofiqlashtiruvchi roli kuchaytiriladi, rahbarlarning javobgarligi oshiriladi va barcha tashabbuslar Prezident darajasida qatʼiy nazorat qilinadi. Bu esa, shubhasiz, taraqqiyotimizga gʻov boʻlayotgan mazkur illatni bartaraf etishda yangi davrni boshlab beradi.

Abdulaziz RASULEV, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor.

KASBIY TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR — TARAQQIYOT POYDEVORI

Globallashuv jarayonlari va to'rtinchi sanoat inqilobi shiddat bilan kechayotgan bugungi davrda har qanday davlatning iqtisodiy qudrati hamda raqobatbardoshligi uning tabiiy boyliklari bilan emas, balki "inson kapitali" sifati bilan belgilanmoqda. Jahon mehnat bozoridagi tendensiyalar shuni ko'rsatmoqdaki, an'anaviy akademik bilimlardan ko'ra o'zgaruvchan texnologik jarayonlarga tez moslasha oladigan, aniq amaliy ko'nikmalarga va zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlarga ehtiyoj tobora ortib borayotir.

Nuqtai nazar

Shu bois mamlakatimizda yoshlarni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash va ularni mehnat bozori talablariga to'liq javob beradigan mutaxassis sifatida tayyorlash masalasi ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Davlatimiz rahbari 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida bu borada alohida to'xtaldi: *"Endi mamlakatimizning mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida – kasb, malaka, texnologiya va ta'limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashi zarur..."*

Texnikumlar faoliyatida yangi sifat bosqichi

Prezidentimiz tomonidan ushbu vazifalarni bajarish uchun 2026-yildan boshlab har yili kamida 100 tadan texnikum to'liq ta'minlanib, texnologik va talab yuqori bo'lgan kasblarga mos holda jihozlab berilishi, Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi davlatlarning ilg'or ta'lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar soni 100 taga yetkazilishi hamda bu yil 7 ta viloyatda, 2027-yilda esa qolgan hududlarda ilg'or kasbiy mahorat texnikumi va "Kasblar shaharchasi" faoliyati yo'lga qo'yilishi belgilandi. Bunda ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari hududdagi boshqa texnikumlar uchun metodik va amaliyot bazasi sifatida faoliyat yuritisa, "Kasblar shaharchasi" maktab o'quvchilarini qurilish, servis, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, "yashil" energetika kabi sohalardagi zamonaviy kasblarga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Sohada boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali yagona yondashuv asosida kasbga o'qitish, ilg'or xorijiy tajribalarni samarali joriy etish va xalqaro standartlarga mos bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida Prezidentimiz tomonidan imzolangan tarixiy hujjatlar – "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon hamda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror tarmoq rivojida yangi davrni boshlab berdi.

Inson kapitali – rivojlanish drayveri

Yangi yondashuvga binoan, kasbiy ta'lim shunchaki ijtimoiy himoya vositasi emas, balki mamlakatning inson kapitali borasidagi imkoniyatlarini to'liq ishga soluvchi iqtisodiy drayverga aylanishi lozim. Belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga ko'ra, 2030-yilga qadar xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar sonini keskin oshirish, 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta'lim bilan qamrovini 50 foizga yetkazish, dual ta'lim ulushini 40 foizgacha ko'tarish kosa dual ta'lim. Bu raqamlar ortida esa minglab yoshlarning taqdiri, oilalar farovonligi va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi yotibdi.

So'nggi yillarda kasbiy ta'lim muassasalarining turli vazirligi va idoralarga tarqoq holda bo'ysunishi yagona davlat siyosatini yuritishda muayyan qiyinchiliklarni tug'dirayotgandi. Islohotlar doirasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida Kasbiy ta'lim agentligi tashkil etilishi tizimdagi tarqoqlikka barham berdi. Endilikda u respublikadagi barcha texnikumlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va kasbiy ta'lim sohasini boshqaruvchi yagona vakolatli organga aylandi.

Har qanday ta'lim islohoti kuchli moliyaviy poydevorga tayanmas ekan, kutilgan natijani bermaydi. Yangi qabul qilingan hujjatlarda kasbiy ta'limni moliyalashtirishning barqaror va rag'batlantiruvchi mexanizmlari joriy etilgan. Xususan, 2026-yildan boshlab har yili Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasiga respublika byudjetidan 600 mlrd. so'm miqdorida mablag' ajratilishi belgilandi.

Rag'batlantirish natijaga asoslanadi

Moliyalashtirishdagi yangi bir innovatsion yondashuv – bu "natijaga asoslangan rag'batlantirish" tizimining joriy etilishi. Ushbu yildan boshlab texnikumlar faoliyati bo'yicha Milliy reyting yuritiladigan bo'ldi. Uning natijalariga ko'ra, eng yuqori o'rinni egallagan 50 ta texnikumning har biri bazaviy hisoblash miqdorining 3 000 baravari darajasidagi bir martalik mablag' bilan mukofotlanadi. Ushbu mablag'larning 80 foizi moddiy-texnik bazani rivojlantirishga, 20



foizi esa ilg'or pedagog va rahbar xodimlarni moddiy rag'batlantirishga yo'naltiriladi, bu esa ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi.

Boshqaruvdagi eng muhim yangiliklardan biri hududiy darajada ijro hokimiyati va biznes vakillarining ta'lim jarayoniga bevosita jalb etilishidir. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari raisligida Kasbiy ta'limni rivojlantirish hududiy tadbirkorlar kengashlari tashkil qilinayotgani ham e'tiborga mo'liq voqelik, desak, mubolag'a emas.

Kengash tarkibiga hududdagi yirik sanoat korxonalari, klasterlar va ish beruvchi tashkilotlar rahbarlari kiritiladi va ularning asosiy vazifasi shunchaki kuzatuvchilik emas, balki

“Yangi yondashuvga binoan, kasbiy ta'lim shunchaki ijtimoiy himoya vositasi emas, balki mamlakatning inson kapitali borasidagi imkoniyatlarini to'liq ishga soluvchi iqtisodiy drayverga aylanishi lozim. Belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga ko'ra, 2030-yilga qadar xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar sonini keskin oshirish, 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta'lim bilan qamrovini 50 foizga yetkazish, dual ta'lim ulushini 40 foizgacha ko'tarish ko'zda tutilgan.”

strategik masalalarni hal etishdan iborat. Ular hudud iqtisodiyoti drayverlaridan kelib chiqib, o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan real ehtiyojni aniqlash, texnikumlarda dual ta'lim tizimini qo'llash va o'quvchilar amaliyotini korxonalarda tashkil qilish, bitiruvchilar bandligini ta'minlash va ta'lim dasturlarini bozor talabiga moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Bunday yondashuv "buyurtmachi" (ish beruvchi) va "ijrochi" (texnikum) o'rtasidagi dialogni institutsional darajaga ko'taradi. Natijada ta'lim muassasasi diplom berish uchun emas, balki hudud iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan, ertaga ish joyi tayyor mutaxassisini tayyorlashga ixtisoslashadi.

Yangi tizimning o'ziga xos jihati – respublikaning har bir hududida bittadan, jami 14 ta ilg'or kasbiy mahorat texnikumi ochilishi. Ushbu muassasalar oddiy texnikumlardan

farqli o'laroq, hududdagi kasbiy ta'lim tizimining texnologik va metodik markazi (Hub) vazifasini bajaradi.

“Ustoz – shogird” an'anasi sertifikatlashgan tizimga aylanadi

Islohotlarning yana bir o'ziga xos jihati, norasmiy ta'limni tan olish tizimining yaratilishi. Farmonga asosan, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimidagi kasbiy ko'nikmalar markazlari 2026-yil yakuniga qadar Malakani baholash markazlariga aylantiriladi. Xo'sh, bu nimani anglatadi? Avvallari fuqaro biror hunarni mustaqil yoki "Ustoz – shogird" an'anasi asosida o'rgangan bo'lsa-da, uni tasdiqlovchi hujjati yo'qligi tufayli malakali ishchi sifatida tan olinmasdi. Yangi tizimda esa norasmiy va informal ta'lim orqali egallangan ko'nikmalar ushbu markazlarda baholanib, rasmiy malaka pasporti yoki sertifikati beriladi.

Davlat malaka talablarini bosqichma-bosqich kuchaytirib bormoqda. 2027-yil 1-yanvardan boshlab Namangan, Samarqand va Toshkent shaharlarida turizm,

kosmetologiya va umumiy ovqatlanish sohalarida, 2027-yil 1-iyundan qurilish sohasida, 2028-yildan esa butun respublika bo'ylab barcha kasblar bo'yicha ishga qabul qilishda malaka darajasiga mos diplom yoki sertifikatga ega bo'lish majburiy etib belgilanayotir. Bu "soyadagi iqtisodiyot"ga barham berish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning samarali mexanizmidir.

O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimi endilikda o'z qobig'ida o'ralashib qolmay, jahon standartlariga integratsiyalashuv yo'lini taladi.

“Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish – taraqqiyot poydevori” degan g'oya ostida boshlangan mazkur jarayonlar mamlakatimizda uchinchi Rennansans poydevorini qurish yo'lida muhim qadam. Endilikda asosiy vazifa ushbu yaratilgan huquqiy va moliyaviy imkoniyatlardan joylarda samarali foydalanishni tashkil etish, ta'lim muassasalari va biznes hamjamiyati o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. Zero, bugungi texnikum o'quvchisi – ertangi kunning bunyodkori bo'lmog'i dardor.

Strategik maqsad – 2030-yilga qadar xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar sonini 250 taga yetkazish.

Aytish joizki, kasbiy ta'lim tizimining oldida turgan eng katta muammolardan biri bitiruvchilarning nazariy bilimi va ish beruvchi kutgan amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Ushbu muammoning samarali yechimi sifatida jahon tajribasida o'zini oqlagan dual ta'lim tizimi tanlangan. Ushbu yo'nalishda ham strategik maqsad belgilangan bo'lib, bu 2030-yilga qadar kasbiy ta'lim tizimida dual ta'lim ulushini amaldagi 9 foizdan 40 foizga yetkazishdan iborat.

Bugungi o'quvchi – ertangi kun bunyodkori

Shu kungacha kasb tanlash ko'pincha maktabning 9-sinfida, majburiy tartib yoxud tasodifiy tanlov asosida amalga oshirilardi. Yangi islohotlar natijasida ushbu eskirgan yondashuvlarga chek qo'yilib, 2026/2027 o'quv yilidan 4 bosqichli kasbga yo'naltirish tizimiga o'tilmoqda. 2028-yildan boshlab o'quvchilarni texnikumlarga qabul qilish tasodifiy emas, balki sinf yakuni bo'yicha o'tkaziladigan imtihon natijalari va kasbiy tashxis xulosalari asosida amalga oshiriladi. Bu esa kasbiy ta'limga "o'qishga kira olmaganlar" emas, balki aniq maqsadga ega iqtidorli yoshlar kelishini ta'minlaydi. Shuningdek, kasblar nufuzini oshirish maqsadida 5-may sanasi "Kasb va mehnat kuni" sifatida belgilandi.

Texnikumlarda ta'lim sifatini oshirishning asosiy kaliti – ishlab chiqarish ta'limi ustalari va pedagoglar. Davlat ularning maqomini ko'tarish uchun bir necha yo'nalishda inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Bu orqali bog'chadan boshlangan to'g'ri yo'nalish va yuqori maosh oluvchi, zamonaviy fikrlaydigan pedagoglar – Yangi O'zbekistonning malakali kadrlar armiyasini shakllantiruvchi asosiy kuchga aylanadi. Tizim barqarorligini ta'minlash maqsadida 2030-yilga qadar texnikumlar faoliyatini tugatish va ularning yer maydonlarini xususiyashtirishga moratoriy e'lon qilingani davlatning ushbu sohaga uzoq muddatli strategik resurs sifatida qarayotganidan dalolat beradi.

Namangan viloyati markazidagi Porloq mahallasi hududida joylashgan "Yoshlar istirohat bog'i" bundan ancha yillar ilgari barpo etilgan edi. So'nggi paytlarda qarovsiz holga tushib qoldi.

Zayniddin XUDOYBERDIYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

E'tirof

BILIM — SAODAT KALITI

Buxoroda farzandini 38-umumta'lim maktabida o'qitish istagidagi ota-onalar ko'p. Sababi – oddiy, maktab rahbariyati bilimi kuchli, o'z ustida ishlaydigan, raqobatga dosh bera oladigan o'qituvchilarni ishga taklif qiladi. Toki, o'quvchining darsdan so'ng u yoki bu fanni chuqurroq o'zlashtiraman, deb pullik o'quv kurslariga borishiga hojat qolmasin. O'y-fikri chalg'imasin.



Buxoro shahridagi mazkur maktabda 90 nafar atrofidagi o'quvchilarning til bilish sertifikatiga egaligi, 5-6 va hatto 4-sinf o'quvchilarining xorij tillarida biyron gapirishini ko'rib, ularning ustozlariga tasanno aytgling keladi.

– O'quvchilarimizning odobi joyida, nutqlari ravon, dunyoqarashlari keng, – deydi maktab direktori D. Jo'rayeva. – Buni kitobxonlikni oqilona yo'lga qo'yganimiz natijasi, deb bilaman. Har oyda o'zbek va jahon adabiyotining eng yaxshi asarlaridan birini o'qib, o'quvchilar bilan muhokama qilamiz. Xorij tillarida ham kitobxonlikni yo'lga qo'yganimiz. Bu haqda alohida to'xtalayotganim bejiz emas. Bolani har xil ijtimoiy tarmoqlar ta'siridan uzoqlashtirish uchun uni kitob o'qishga undash kerak, deb o'ylayman. Yoshlarimiz qay bir yutuqqa erishayotgan bo'lishsa, uning zamirida kitobxonlik, ustozlarning oila bilan hamkorlikdagi mehnati yotibdi.

Darvoqe, yaqinda shu maktabning bitiruvchi sinf o'quvchisi Niyozbek Komilov aytsa arzigulik yutuqlardan birini qo'lga kiritdi. Dasturlash va raqamli texnologiyalar sohasi bilan jiddiy shug'ullanayotgan Niyozbek o'z jamoasi bilan "President Tech Award" tanlovida g'olib chiqdi. Jamoa 100 ming AQSH dollari miqdoridagi mukofot bilan taqdirlandi.

– Tanlovda "Tahrirchi" deb nomlangan loyihamiz bilan qatnashdik, – deydi u. – Bu ishlammamiz o'zbek tili uchun mo'ljallangan. U matnni onlayn tarzda tahrirlash xizmatini amalga oshirdi. Raqamli texnologiyalarni mahalliy ehtiyojlarga moslashtirishda asqatadi. Bevosita o'zimga kelsak, maktabdan so'ng dunyoning yetakchi oliy o'quv yurtlaridan birida tahsil olmoqchiman.

...Bilim dargohidan qaytayotib o'quvchilar erishgan natijalar maxsus doskada bir-bir bayon etilganiga ko'zimiz tushdi. Yon tomonda esa jadid bobolarimiz, jumladan, Abdurauf Fitratning "Agar kishi tijorat bilan mashg'ul bo'lsa, bu dunyoda farovon yashaydi, agar ibodat bilan shug'ullansa, u dunyoda oxirati obod bo'ladi, agar ilm bilan shug'ullansa, u ikki dunyo saodatiga erishadi", degan hikmatomuz so'zlari bitilgan. Mag'iz butun, oltinday zanglamas bu bitiklarni o'qib, beixtiyor akademik shoir G'afur G'ulomning "Taqqirin qo'l bilan yaratur odam, G'oyibdan kelajak baxt bir afsona" degan misrasi yodimizga tushdi.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

TIBBIY XIZMAT AHOLIGA YAQINLASHDI

Navbahor tumanining Beshrabort mahallasi hududida yangi xususiy tibbiyot muassasasi ochildi. Maqsad aholiga qulay va sifatlil tibbiy xizmat ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, bu yerda endokrinolog, lor, urolog hamda terapevt kabi mutaxassislar faoliyat olib boradi.

Qulaylik

Eng ilg'or tibbiy texnologiyalar bilan jihozlangan laboratoriyalar aniq tashxis qo'yish va davolash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Muassasada 11 ta stasionar davolanish o'рни mavjud.

– Mehnat faoliyatimning asosiy qismi tibbiyot birlashmasining rahbarlik lavozimlarida o'tgan, – deydi faxriy shifokor Bobojon G'afforov. – Albatta, bu muassasadagi



tashxis qo'yish va davolash uskunalarining aksariyati biz kabi shifokorlarning uzoq yillik orzuimiz edi. Shubhasiz, mazkur salohiyat tibbiy faoliyat samaradorligini oshiradi. Muassasaning ochilish

marosimida ishtirokchilar yangi shifo maskani bilan yaqindan tanishib, yaratilgan shart-sharoit va tibbiy xizmatlar sifatiga yuqori baho berishdi. Shuningdek, ular tadbirkorning tashabbusini qo'llab-quvvatlab, bunday loyihalar aholi salomatligini mustahkamlash, ish o'rinlari yaratishda muhimligini ta'kidlashdi.

Yangi xususiy tibbiyot muassasasining ishga tushirilishi mahallada va unga yaqin hududlarda istiqomat qiluvchi aholi uchun zarur qulaylik yaratishi bilan e'tiborga mo'lik.

Temur ESHBOYEV
("Xalq so'zi").

Ijtimoiy himoya E'TIBOR VA G'AMXO'RLIK NAMUNASI

Qo'shtepa tumanida 4 nafar yigit-qizga yangi uylar taqdim etildi. Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagi tegishli qarori asosida yetim bolalar va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni mustaqil hayotga qadam qo'ygani uy-joy bilan ta'minlashning aniq tizimlari belgilab berilgan.

Tantanali tadbirida Qo'shtepa tumani hokimligi hamda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi mas'ullari yoshlarni uyli bo'lgani bilan qutlashdi. Yangi uyda mahalla faollari, nuroniylar ishtirokida bir piyola choy ustida samimiy suhbat uyushtirilib, ezgu tilaklar bildirildi. Bunday e'tibor va rag'batdan mamnun bo'lgan Ma'rufjon Mamajonov, Nilufarxon Rahimova, Farangiz Tursunova va Jasurbek O'rmonov elu yurt xizmatida kamarbasta bo'lishga va'da berishdi.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi xabariga ko'ra, o'tgan yili mamlakatimizda aholining sil bilan kasallanish ko'rsatkichi 3,7 foizga kamaydi.

Xalq so'zi

Народное слово

MUASSISLAR:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yulish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2030-8788

4 772030 878809

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir R. Bobojonov.

Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.35 Topshirildi – 00.40

1 2 3 4 5 6